



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 30-aprel, № 85 (9256)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## GIDROENERGETIKA SOHASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR VA ISTIQBOLLI REJALAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 29-aprel kuni gidroenergetika sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

O'zbekistonda 150 ming kilometrdan ortiq daryolar, soylar va kanallar mavjud. Bu manbalar nafaqat ichimlik suvi va sug'orish, balki energetika, iqtisodiyot hamda ekologiya nuqtayi nazaridan ham strategik ahamiyatga ega.

Bugungi kunda elektr energiyasi ishlab chiqarishning katta qismi tabiiy gaz va ko'mirga bog'liq. Gidroenergiya ulushi esa 10 – 12 foiz atrofida. Shu bois gidroenergetikani rivojlantirish energiya tizimini barqarorlashtirish, yoqilg'i resurslariga bog'liqlikni kamaytirish va suv resurslaridan samarali foydalanishda muhim o'rin tutadi.

So'nggi yillarda sohada salmoqli natijalarga erishildi. 2017-yilda 36 ta bo'lgan gidroelektr stansiyalar soni 2025-yilda 100 taga yetkazildi. Ularning umumiy quvvati 1,6 gigavatttdan 2,4 gigavattgacha oshdi.

Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan gidroagregat va texnologik uskunalari ishlab chiqaruvchi "UzHydroPower" zavodi tashkil etildi. O'tgan yili ishga tushirilgan Norin GESlar kaskadining birinchi bosqichi ilk marotaba "milliy loyiha" modeliga asosan amalga oshirilib,

barcha jarayonlar to'liq mahalliy korxonalar tomonidan bajarildi.

Shu bilan birga, mamlakatimiz gidroenergetika salohiyatining katta qismi hali ishga solinmagani qayd etildi. Aholi va iqtisodiyot o'sishi bilan elektr energiyasiga talab oshib borayotganini hisobga olib, bu salohiyatdan to'liq, har bir daryo, soy va kanallarda foydalanish hamda yangi quvvatlarni jadal ishga tushirish zarurligi ta'kidlandi.

Taqdimotda 2026 – 2032-yillarda umumiy qiymati 5,8 milliard dollar bo'lgan 73 ta istiqbolli loyihani amalga oshirish rejalari ko'rib chiqildi. Buning natijasida qo'shimcha 3,6 gigavatt quvvat yaratilishi kutilmoqda.

Joriy yilda 13 ta GESni foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Ularning umumiy quvvati 114 megavatt, yillik ishlab chiqarish hajmi esa 537 million kilovatt-soatni tashkil etadi. Mazkur loyihalar doirasida 254 ta ish o'rni yaratiladi. Bunga qo'shimcha Bo'stonliq tumanida 28 million dollarlik grantlar hisobidan 20 megavatt quvvatli shamol elektr stansiyasi qurilmoqda. Yirik loyihalar qatorida Bo'stonliq

tumanidagi Yuqori Pskom GES qurilishi alohida ahamiyatga ega. Qiymati 365 million dollar bo'lgan mazkur loyihaning quvvati 160 megavatt, yillik ishlab chiqarish hajmi 484 million kilovatt-soat bo'ladi. Bu 161 ming xonadonni elektr energiyasi bilan ta'minlash imkonini beradi. Loyihada mahalliy komponentlar ulushi 82 foizni tashkil etadi.

Farg'ona viloyatining So'x tumanida "milliy loyiha" tamoyili asosida So'x GES qurilishi rejalashtirilgan. Quvvati 15 megavatt bo'ladigan ushbu stansiya yiliga 50 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarib, tumanidagi elektr ehtiyojining 71 foizini barqaror ta'minlashga xizmat qiladi.

Yuqori To'polang hududining gidroenergetika salohiyati ham ko'rib chiqildi. "To'polang" suv omboriga quyiladigan daryo va soylarda 42 ta kichik GES qurish orqali 541 megavatt quvvat yaratish, yiliga qariyb 1,9 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

Dunyo amaliyotida gidrotoplash elektr stansiyalarini qurish orqali energiyani saqlash va

qayta taqsimlash tizimlari keng joriy etilayotgani ta'kidlandi. Mamlakatimizda ham ilk bor umumiy quvvati 1,4 gigavatt bo'lgan 3 ta shunday stansiyaning barpo etish imkoniyatlari ko'rib chiqilmoqda.

Shuningdek, umumiy quvvati 164 megavatt bo'lgan 2983 ta kichik va mikroGES qurish rejalari muhokama qilindi.

Raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish ham soha samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishi sifatida belgilandi. Suv omborlari va gidroinshootlarda suv sathi, suv hajmi, bosim, meteoma'lumotlar va ishlab chiqarish jarayonlarini onlayn kuzatish imkonini beruvchi raqamli monitoring tizimlari bosqichma-bosqich joriy etiladi. Hozirda suv omborlarining xavfsizligini ta'minlash uchun 3,5 mingta nazorat-o'lchov apparatlari o'rnatilgan.

Davlatimiz rahbari gidroenergetika sohasidagi loyihalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, mahalliy lashtirish darajasini oshirish bo'yicha mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi.

Taqdimotda poytaxt hududidagi

daryo va kanallar bo'ylarini obodonlashtirish, shaharda salqin mikroqliq yaratish maqsadida sun'iy ko'l va havzalar barpo etish bo'yicha ishlar to'g'risida ham axborot berildi.

Jumladan, Chirchiq daryosining poytaxt hududidan o'tuvchi 16 kilometr qismini obodonlashtirish hisobiga 306 gektar yer maydonida "Daryo bo'yi" loyihasi amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Loyiha doirasida daryo qirg'oqlarini mustahkamlash, yashil hududlar barpo etish, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarini joylashtirish ishlari amalga oshiriladi. Bektemir kanali bo'yida 187,3 gektar maydonda "yashil belbog'" yaratiladi, sayilgohlar barpo etiladi. Piyodalar va veloyo'laklar, ichki yo'llar, yoritish tizimlari hamda ko'priklar quriladi.

Poytaxtda 4 ta sun'iy ko'l va suv havzalarini tashkil etish loyihasi ham taqdimot qilindi. Prezidentimiz aholi uchun qulay sharoitlar, shaharda salqin mikroqliq yaratishga bu kamlik qilishini qayd etib, ko'llar sonini 12 taga yetkazishni topshirdi.

O'ZA.

## CHEXIYA RESPUBLIKASI BOSH VAZIRI O'ZBEKISTONGA KELDI

Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babish 29-aprel kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Oliy martabali mehmonni "Toshkent-Humo" xalqaro aeroportida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Shundan so'ng Oliy martabali mehmon "Yangi O'zbekiston" bog'iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qo'ydi.

Mamlakatimiz o'timishi va kelajagi timsoli sanalgan Mustaqillik monumenti Yangi O'zbekiston ma'naviyatining gultojidir. U yerda kamolot sohiblari bo'lmish ajdodlarimiz siymosi aks etgan.

Chexiya Bosh vaziri umrini yurt taraqqiyoti, el farovonligi yo'lida ilm-ma'rifat bilan o'tkazgan ajdodlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirdi. Yurtimiz tarixi, dunyo tamadduniga hissa qo'shgan bobolarimiz ma'rifati haqida ma'lumot berildi.

Toshkent shahrida Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babishning mamlakatimizga rasmiy tashrifi doirasida ikki davlat ishbiarmon doiralari qo'shma biznes forumi o'tkazildi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov va Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babish ishtirok etdi.

Forumda ikki mamlakatning yetakchi sanoat korxonalari, investitsiya kompaniyalari va moliyaviy tuzilmalari vakillari jam bo'ldi. Xususan, Chexiya delegatsiyasi tarkibidan mashinasozlik, energetika, kimyo, farmatsevtika va transport-logistika sohaslarida faoliyat yurituvchi 50 dan ortiq yirik kompaniyalar rahbarlari joy oldi.



### Uchrashuv

## AMALIY MAZMUN KASB ETAYOTGAN SHERIKLIK

O'zbekiston va AQSHning Yuta shtati o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga bag'ishlangan tadbir doirasida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva mazkur shtat Senati Raisi Stjuart Adams boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Muloqotda O'zbekiston va Yuta shtati o'rtasidagi munosabatlar keyingi yillarda izchil rivojlanib, parlamentlararo aloqalar, ta'lim, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, gumanitar hamkorlik va inson kapitali salohiyatini oshirish kabi yo'nalishlarda yangi bosqichga ko'tarilayotgani ta'kidlandi.

Tomonlar mazkur sheriklik amaliy mazmun kasb etayotganini urg'uladi. Xususan, Yuta shtati vakillari O'zbekistonga doimiy tashrif buyurayotgani, ikki tomonlama aloqalarni kengaytirishga qiziqish ortib borayotgani, shuningdek, ta'lim muassasalari, ishbiarmon doiralari va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi

munosabatlar mustahkamlanayotgani ta'kidlandi.

Uchrashuv yakunida tomonlar o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish, o'rnatilgan aloqalarni institutsional jihatdan mustahkamlash va qo'shma loyihalarni amalga oshirishda muloqotni davom ettirishga tayyor ekanliklarini bildirdi. Shuningdek, mehmon taraf Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyevani o'zi uchun qulay muddatda Yuta shtatiga tashrif bilan kelishga taklif etdi.

Oliy Majlis Senati Axborot xizmati.

## O'ZARO ALOQALAR MUSTAHKAMLANADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Spiker N. Ismoilovning Gretsiyaning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Paraskevi Seveleki bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqot avvalida mehmon tomoniga yangi tahrirdagi Konstitutsiya va "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tarixiy islohotlar, Qonunchilik palatasi faoliyati haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Elchi samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirar ekan, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonda barcha sohalarda – ijtimoiy-iqtisodiy, demokratik yangilanishlar va parlamentarizmi rivojlantirish yo'nalishida olib borilayotgan islohotlarni yuqori baholadi.

Konstruktiv ruhda o'tgan uchrashuvda ikki mamlakat parlamentlari hamkorlik munosabatlarining hozirgi holati va uni yanada kengaytirish masalalari ham muhokama qilindi.

Tomonlar ikki mamlakat parlamentlari o'rtasidagi aloqalarni faollashtirish, jumladan, o'zaro tashriflarni tashkil etish, do'stlik guruhlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozimligini ta'kidladi.

Uchrashuv ochiq va do'stona ruhda o'tdi.

"Xalq so'zi".

### Muloqot

## QO'SHMA TASHABBUSLARNI AMALGA OSHIRISHGA KELISHIB OLINDI

Oliy Majlis Senatinin Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orziqul Qozixonova "BMT-ayollar" tuzilmasining Markaziy Osiyo bo'yicha muvofiqlashtiruvchi ofisi rahbari Jeren Guven Guresh bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar haqida so'z yuritildi.

Muloqot chog'ida Osiyo xotin-qizlari ikkinchi forumini yuqori saviyada tashkil etishga doir tashkiliy masalalar atroflicha muhokama qilindi.

Tomonlar o'zaro hamkorlik yuksak ahamiyatga ega ekanini, uning izchil rivojlantirilishi mazkur yo'nalishdagi aloqalarni yanada mustahkamlashda muhim omil bo'lishini bildirdi.

Shuningdek, bo'lajak forum mazmunini boyitish, uni amaliy natijalarga yo'naltirish va yakuniy hujjatni aniq taklif hamda tavsiyalarga asoslangan holda

ishlab chiqish masalalariga e'tibor qarattildi. "BMT-ayollar" tuzilmasi mazkur hujjat loyihasi xalqaro ekspertlar ishtirokida puxta ishlab chiqishda amaliy ko'mak berishga tayyorligini bildirdi.

Forum doirasida xalqaro ekspertlar hamda yuqori malakali amaliyotchil mutaxassislarni keng jalb qilish, panel sessiyalar mavzularidan kelib chiqib, nufuzli ma'ruzachilar ishtirokini ta'minlash masalalariga ham urg'u berildi.

Uchrashuv yakunida xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda gender tenglikni rivojlantirishga qaratilgan qo'shma tashabbuslarni izchil amalga oshirishda yakkalik bildirildi.

"Xalq so'zi".

## IQTISODIY TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Farg'ona viloyatiga tashrifi hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, zamonaviy qishloq xo'jaligi, turizm, ta'lim va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning amaliy natijalarini namoyon etdi.

### Munosabat



Xususan, "Crown Ceramic" qo'shma korxonasi faoliyati bilan tanishuv mahalliy xomashyo asosida import o'rini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini ko'rsatdi. O'zaro xomashyoni yuqori qiymatli mahsulotga aylantirish, energotejamkor texnologiyalar, raqamlashtirish va ekologik yondashuv nafaqat

sanoat samaradorligini, balki hududning eksport salohiyatini ham oshirmoqda. Bu esa sanoatlashuvning yangi bosqichini anglatadi.

"Quva Agrostar" va agrovoltaika majmualari bilan tanishuv qishloq xo'jaligida an'anaviy yondashuvdan kompleks agrobiznes modellari o'tish boshlanganini tasdiqladi.



# CHEXIYA RESPUBLIKASI BOSH VAZIRI O'ZBEKISTONGA KELDI

Ta'kidlanganidek, so'nggi sakkiz yil ichida O'zbekiston va Chexiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi ikki barobarga oshdi. Bugungi kunda mamlakatimizda Chexiya kapitali ishtirokida 36 ta qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish va turizm sohalari o'zaro hamkorlikning muvaffaqiyatli yo'nalishlari sifatida qayd etildi.

Muzokaralar davomida iqtisodiy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishning qator istiqbolli yo'nalishlari haqida so'z bordi. Chexiya kompaniyalari mis va boshqa rangli metallarni qazib olish, ularni chuqur qayta ishlash hamda tog'-kon texnikalarini mahalliy lashtirish loyihalariga taklif etildi.

Gidroelektr stansiyalar qurish, kogeneratsiya uskunalari o'rnatish, sohani raqamlashtirish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha sheriklikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekistonning IT-parklari va sohadagi 100 mingdan ziyod mutaxassislar salohiyatidan foydalanish holida uchinchi davlatlar bozori uchun qo'shma raqamli mahsulotlar yaratish imkoniyatlarini muhokama qilindi.

Mamlakatimizdagi kimyo klasterlari negizida mineral o'g'itlar, polimerlar va maishiy kimyo vositalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, shuningdek, farmatsevtika sohasida qo'shma loyihalarni amalga oshirish yuzasidan fikr almashildi.

Ikki davlatning geografik joylashuvi strategik ahamiyatga ega ekan alohida qayd etildi. Bu O'zbekiston uchun Yevropa Ittifoqi bozoriga, Chexiya uchun esa Markaziy Osiyo bozoriga chiqishda darvoza vazifasini o'taydi. Shu munosabat bilan paritet asosida savdo uylari va logistika markazlarini tashkil etish taklifi ilgari surildi.

O'zbekiston tomoni chexiyalik investorlar uchun maxsus sanoat parklarida yaratilgan imkoniyatlar va Yevropa kompaniyalari uchun taqdim etilayotgan alohida imtiyozlarga to'xtalib o'tildi.

O'z navbatida, Chexiya Bosh vaziri o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga tayyorligini bildirib, aniq investitsiyaviy takliflarini taqdim etdi. Forum yakunida ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan qator muhim hujjatlar va bitimlarni imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

Mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babish nafaqat yurtimiz, balki butun dunyo gavhariga aylangan O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi

markaziga bordi. Markaz ilmiy, ma'rifiy hamda tarixiy nuqtayi nazardan o'timish va buguniy bog'lovchi ko'prikdir. Bugun uning faoliyati butun dunyo diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Bu yerga tashrif buyuruvchilarga xalqaro standartlar asosida xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Majmua haqida tarqatma materiallar, broshyuralar va kitoblar nashr qilindi. O'zbekiston muzey amaliyotida ilk bor nufuzli xalqaro ekspertlar jalb etilgan holda zamonaviy kimyo-fizik laboratoriyada barcha muzey ashyolarining kimyoviy tarkibi va yaratilgan vaqti aniqlanib, ularning texnologik pasportlari tayyorlandi.

Xalqaro ISO standartlari asosida eksponatlar raqamlashtirilib, yagona elektron platformaga joylashtirildi. YUNESKO va IKOM talablari, shuningdek, jahonning eng mashhur muzeylari tajribasi asosida eksponatlarining 8 yo'nalishdagi etiketaj etalonlari va tasnifi yaratildi. Har bir eksponatga QR-kodlar joylashtirish natijasida tashrif buyuruvchilar mobil telefon yoki planshet orqali ularning video va audio kontenti bilan dastlab 3 tilda, keyinchalik esa 8 tilda tanishish imkoniga ega bo'ldi.

Bugun majmuada Britaniya, Luvr va Metropolitan muzeylaridagi kabi planshetlar orqali video hamda audio tanishuv, audiogidlar, radiogidlar va ma'lumot olish quloqchinlaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Chexiya Bosh vaziri Andrey Babish jahon muzeylariga tenglasha oluvchi noyob durdonalarni saqlayotgan Islom sivilizatsiyasi eksponatlarini ko'zdan kechirib, ajdodlarimizning boy merosidan hayratga tushdi.

Tashrif dasturiga muvofiq, 30-aprel kuni Toshkent shahrida oliy darajadagi muzokaralar bo'lib o'tadi, ko'p qirrali O'zbekiston - Chexiya hamkorligini yanada rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqiladi.

O'zaro savdoni ko'paytirish, mashinasozlik, "yashil" energetika, kimyo, farmatsevtika va transport sohalarida kooperatsiyani kengaytirish diqqat markazida bo'ladi. Madaniy-gumanitar va ta'lim sohalaridagi hamkorlik masalalari muhokama qilinadi.

Xalqaro kun tartibidagi masalalar, shu jumladan, ko'p tomonlama maydonlarda o'zaro qo'llab-quvvatlash yuzasidan ham fikr almashildi.

Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babishning mamlakatimizga rasmiy tashrifi davom etmoqda.

**Ikrom AVVALBOYEV, Abdulaziz RUSTAMOV, Marhabo HOJIAKBAROVA, O'ZA muxbirlari.**

# O'zbekiston va Chexiya: IKKI MINTAQANI BOG'LOVCHI STRATEGIK KO'PRIK

2026-yilga kelib, Chexiya yuqori texnologiyalar va "yashil" iqtisodiyotga o'tish orqali o'zining mintaqadagi mavqei yanada mustahkamlandi. Bu jihatdan bilan ham "yashil" iqtisodiyotga o'tish yo'lida odimlayotgan O'zbekiston bilan mushtarak maqsadlarga ega.



Chexiya Bosh vaziri Andrey Babishning yurtimizga amalga oshirayotgan ikki kunlik tashrifi keyingi paytlarda susaygan munosabatlarga turki berishdan iborat. Ikki yil oldin Chexiya tashqi ishlar vaziri Yan Lipavskiyning Toshkent va Ostonaga tashrifi chog'ida katta umidlar bilan bir qator iqtisodiy kelishuvlarga erishilgan bo'lsa-da, ularning aksariyati rasmiy protokollar doirasida qolib ketdi.

Bosh vazir Andrey Babish boshchiligidagi bugungi missiya diplomatik deklaratsiyalarni aniq iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan almashtirish orqali bu vaziyatni to'g'rilashni maqsad qilgan. Hukumat rahbariga energetika, transport, mashinasozlik va mudofaa sanoati sohasidagi faoliyat yurituvchi 50 ga yaqin nufuzli kompaniyalar rahbarlari hamrohlik qilayotgani fikrimizning yaqqol tasdiqidir. Delegatsiya tarkibidan "CSG" mudofaa guruhi, "Explosia" o'q-dori ishlab chiqaruvchi korxonasi, "Skoda Group" muhandislik kompaniyasi, "Aero Vodochody Aerospace" va "Ceska Zbrojovka" kabi sanoat gigantlari o'rinda olgan.

Chexiya sanoati va transport konfederatsiyasi (SPCR) ma'lumotlariga ko'ra, safardan asosiy maqsad - chex eksportini oshirish va yangi investitsiyaviy imkoniyatlarni izlash. Chexiya kompaniyalari nafaqat energetika va mudofaa, balki transport infratuzilmasi va sog'liqni saqlash sohalarida ham hamkorlikni chuqurlashtirish niyatida. Bugungi kunda mintaqada muvaffaqiyatli ishlayotgan chex tadbirkorlari soni ortib borayotgani, ushbu biznes-missiya esa iqtisodiy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishi kutilmoqda.

O'z mintaqalarida, ya'ni Markaziy Osiyo va Markaziy Yevropada katta salohiyatga ega bo'lgan O'zbekiston va Chexiya bir-biri uchun muhim davlatlar. O'zbekiston uchun kuchli sanoatlashgan Chexiya - Yevropa Ittifoqidagi eng ishonchli va yuqori texnologik sheriklardan biri. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda "Skoda", "Tatra" va "Zetor" kabi brendlari bilan dunyoga mashhur Chexiyaning mashinasozlik, dastgozsohlik va elektronika sohasidagi boy tajribasi va sifatlari texnologiyalari o'ta zarur. O'zbekiston temir yo'l tizimini yangilash (masalan, zamonaviy elektropoyezdlar yetkazib berish), jamoat transporti va aviatsiya yo'nalishida mamlakatimizga muhim sherik bo'lishi mumkin.

Qolaversa, Chexiya O'zbekiston uchun Yevropa bozorlariga chiqishda zarur logistik va siyosiy xab vazifasini o'taydi. "GSP+" tizimi doirasida chex tadbirkorlari bilan qo'shma korxonalar tuzish

mahsulotlarimizni Yevropa standartlari asosida eksport qilish imkonini beradi. Dunyo reytingida yuqori o'rinlarda turuvchi va ta'lim tizimi amaliyotga yo'naltirilgan Chexiya universitetlari O'zbekiston uchun texnik kadrlar tayyorlashda maqbul yo'nalishlardan biridir. O'zbekiston ham Chexiya uchun ahamiyatli davlat. Rasmiy Praga nuqtayi nazaridan, O'zbekiston - mintaqaviy yetakchi va yangi imkoniyatlar bozori. O'zbekiston - mintaqaning qoq markazida joylashgan va barcha qo'shnilar bilan chegaradosh yagona davlat. Chexiya kompaniyalari uchun O'zbekistonda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish - bu nafaqat 38 millionlik bozorga, balki ko'p shahar davlatlari va Afg'oniston bozoriga ham chiqish demakdir. O'zbekiston boy mineral resurslarga (oltin,

**“Chexiya O'zbekiston uchun Yevropa bozorlariga chiqishda zarur logistik va siyosiy xab vazifasini o'taydi. "GSP+" tizimi doirasida chex tadbirkorlari bilan qo'shma korxonalar tuzish mahsulotlarimizni Yevropa standartlari asosida eksport qilish imkonini beradi. Dunyo reytingida yuqori o'rinlarda turuvchi va ta'lim tizimi amaliyotga yo'naltirilgan Chexiya universitetlari O'zbekiston uchun texnik kadrlar tayyorlashda maqbul yo'nalishlardan biridir.”**

mis, uran, gaz) ega. Chexiya sanoati uchun bu xomashyo bazasini diversifikatsiya qilish va barqaror ta'minot yo'lini yaratish imkoniyatidir.

O'zbekistondagi liberalashtirish islohotlari chex investorlari uchun qulay muhit yaratadi. Energetika, suv xo'jaligi va qishloq xo'jaligini raqamlashtirish bo'yicha chex kompaniyalarida katta loyihalar mavjud. Ikki mamlakat uchun ham eng yuqori samara beradigan yo'nalishlar bu, avvalo, transport va mashinasozlik: temir yo'l va shahar transporti (tramvay, avtobus) parkini yangilash, Chexiya texnologiyalari asosida O'zbekistonda qishloq xo'jaligi texnikalarini yig'ishni yo'lga qo'yish shular jumlasidan. Issiqlik va gidroelektr stansiyalarini modernizatsiyalashtirish, yadroviy energetika sohasida Chexiya katta tajribaga ega bo'lib, bu O'zbekistonning kelajakdagi energetik rejalarini uchun ahamiyatli. Suvni tejovchi texnologiyalar, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va chorvachilikda zotdor mollarni ko'paytirishda ham bu mamlakat katta salohiyatga ega. Chexiya mudofaa sanoati (aviatsiya, radar tizimlari)

Markaziy Osiyo xavfsizligini ta'minlashda O'zbekiston uchun qiziqarli va samarali hisoblanadi. Chexiyaning Karlovi Vari kabi sanator-kurort tizimi yurtdoshlarimizga yaxshi tanish. Uni O'zbekistonda qo'llash va ikki tomonlama sayyohlar oqimini ko'paytirishda hamkorlik istiqbollari mavjud.

Qisqacha aytganda, O'zbekiston va Chexiya o'rtasidagi hamkorlik - bu ikki hududning iqtisodiy jihatdan bir-birini to'ldirishidir. Chexiyaga yangi bozor va xomashyo kerak bo'lsa, O'zbekistonga zamonaviy texnologiya va sifatlari investitsiya zarur. 2026-yilga kelib, ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanishining keskin o'sishi va qo'shma loyihalarning ko'payishi munosabatlar Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi muvaffaqiyatli hamkorlik namunasini bo'lishidan dalolat beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston eksportining asosini xizmatlar, sanoat mollari, tayyor mahsulotlar, oziq-ovqat va kimyo mahsulotlari tashkil etadi. O'z navbatida, Chexiyadan import, asosan, mashina va transport uskunalari, kimyo sanoati mahsulotlari va sanoat

bag'ishlash imkonini berdi. O'zbekiston va Chexiya o'rtasidagi munosabatlar mutlaqo yangi o'zanga tushmoqda. Ikki davlat rahbarlari va hukumat darajasidagi muloqotlarning faollashgani bu hamkorlik shunchaki diplomatik aloqa emas, balki chuqur iqtisodiy va strategik asosga ega ekanini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston va Chexiya ko'p tomonlama platformalarda hamkorlikni muvofiqlashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mamlakatlarimiz tashqi siyosat idoralari o'rtasidagi aloqalar xalqaro tadbirlar doirasida muntazam ravishda amalga oshirilmoqda. Xususan, 2023-yilda O'zbekiston va Chexiya tashqi ishlar vazirlarining Lyuksemburgda bo'lib o'tgan "O'zbekiston - Yevropa Ittifoqi" hamkorlik kengashi yig'ilishi hamda Skopje shahrida bo'lib o'tgan YEXHT tashqi ishlar vazirlari kengashi yig'ilishi doirasida ikki tomonlama uchrashuvlari tashkil etildi.

O'zbekiston - Chexiya munosabatlari rivojlantirishda parlamentlar-aro va idoralar hamkorlik ham muhim o'rin tutadi. Qonun chiqaruvchi organlar o'rtasidagi aloqalar izchil rivojlanib, yanada tizimli tus olmoqda. 2017-yil fevral oyida Chexiya Parlamenti Deputatlar palatasi raisi Yan Gramachekning O'zbekistonga tashrifi parlamentlararo aloqalar rivojiga qo'shimcha sur'at bag'ishladi. 2025-yilda hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhlarining tashkil etilishi sheriklikni rivojlantirishning sifati jihatdan yangi bosqich bo'ldi.

Ta'lim va ilm-fan sohasi o'zaro hamkorlikning eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biridir. Ikki mamlakatning yetakchi universitetlari o'rtasida barqaror aloqalar o'rnatilgan, qo'shma ta'lim dasturlari va tadqiqot loyihalari amalga oshirilayotir. 1997-yildan buyon Chexiya hukumati har yili O'zbekiston fuqarolariga oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun stipendiyalarni ajratayotgani e'tiborga molik. Shu bilan birga, akademik mobillikning barqaror ijobiy dinamikasi kuzatilayotir. Masalan, 2020-yilda Chexiyada 350 nafarga yaqin o'zbekistonlik talabalar tahsil olgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 650 - 700 nafarga yetdi. Ta'limning asosiy yo'nalishlari texnik, iqtisodiy, agrar va AKT mutaxassisliklari ekanligi mazkur ustuvor yo'nalishlarda kelajakda malakali kadrlar taqchilligining oldini olishga xizmat qiladi.

O'zbekiston va Chexiya o'rtasidagi aloqalar har ikki tomon uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ikki mamlakatning iqtisodiy, madaniy va siyosiy hamkorligi ularning global miqyosdagi o'rini mustahkamlaydi. Chexiya mamlakatimiz uchun investor sifatida muhim hisoblansa, O'zbekiston Chexiya uchun mintaqaga kirish darvozasi va strategik bozor sifatida ahamiyat kasb etadi. Ushbu aloqalarni rivojlantirish har ikki tomonning kelajagi uchun foydali bo'lishi muqarrar.

**To'iqin TESHABOYEV, Toshkent davlat iqtisodiy universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.**

# HAR BIR MUROJAAT ORTIDA - INSON TAQDIRI

Yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lining eng muhim xususiyatlaridan biri inson manfaatlarini ta'minlashga davlat siyosati darajasida yondashilayotganidir. Islohotlarning dastlabki bosqichidayoq Prezidentimiz tomonidan "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", degan qat'iy tamoyil ilgari surildi. Bu shunchaki chaqiriq bo'lib qolmasdan, amaliy qadamlar tashlandi - Xalq qabulxonalarini faoliyati yo'lga qo'yildi, parlament a'zolari va davlat organlari uchun aholi bilan ochiq muloqot qilish talabi kuchaytirildi, fuqarolar murojaatlariga joylardagi holatni ko'rsatuvchi muhim "signal" sifatida qarala boshlandi.

## Ombudsman minbari

Bugun bu masala yanada katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki 2026-yilga kelib aholi nufusi 38 milliondan, mehnatga layoqatli yurtdoshlarimiz soni esa 20 milliondan oshdi. Bu esa davlat organlari oldiga odamlarni tinglash, ularning murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish va muammolarini joyida hal etish bo'yicha yanada katta mas'uliyat yuklaydi.

O'tgan davr mobaynida ko'plab fuqarolar murojaatlari ijobiy hal etildi, byurokratik to'siqlarni qisqartirish, davlat xizmatlari ko'lamin kengaytirish, sohalarni raqamlashtirish, masofadan turib elektron murojaat yo'llash imkoniyatlarini yaratish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Aholi murojaatlari bilan ishlashga oid qonunchilik mustahkamlandi, davlat idoralarning mas'uliyati kuchaytirildi, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlar va bolalarni zo'rvonlikdan himoya qilish, mahkum va mahbuslar huquqlarini ta'minlash bo'yicha ham muhim ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.

Bu yondashuv 2026-yilda ham izchil davom ettirilmoqda. Xususan, Prezidentimizning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"da ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi

Farmonida fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish, inson huquqlarini himoya qilishda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash, Ombudsman va uning hududiy vakillari faoliyatini kuchaytirish, mobil qabul kunlari hamda onlayn qabullar tizimini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu inson huquqlarini ta'minlash masalasi davlat siyosati kun tartibidan tushmayotganini yana bir bor ko'rsatadi.

Davlatimiz rahbari shu yil mart oyida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham murojaatlar bilan ishlash masalasiga alohida to'xtalib, bundan buyon "Har bir inson va xonadon muammosini bilib, vaqtida ko'mak berishim kerak", degan shior barcha darajadagi rahbarlar faoliyatida bosh qoida bo'lishi shartligini qayd etdi. Shu bilan birga, murojaatlar bo'yicha shunchaki javob qaytarish emas, balki ularni keltirib chiqarayotgan omillarni aniqlab, muammolarni tizimli bartaraf qilish zarurligiga urg'u berildi. O'z navbatida, shuni ta'kidlash joiz, dunyodagi hech bir davlat inson huquqlari sohasida barcha masalalar to'liq hal etiladi, deb ayta olmaydi. Chunki bu - bir marta erishib to'xtab qolinadigan emas, balki doimiy takomillashuvni



talab qiladigan uzluksiz jarayon. Hayot o'zgarimoqda, jamiyat rivojlanmoqda, fuqarolarning huquqiy ehtiyojlari ham ortib bormoqda. Demak, erishilgan natijalar bilan birga, hal etilishi lozim bo'lgan ishlar ham doim bo'ladi.

Ombudsmaning 2025-yil sarhisobi ana shu ikki jihatni - erishilgan amaliy natijalarni ham, tizim oldida turgan dolzarb vazifalarni ham yaqqol namoyon etadi. Jumladan, 2025-yilda Ombudsman nomiga 26 372 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, bu 2024-yildagiga nisbatan 12,6 foizga ko'p. E'tiborli jihat, zamonaviy axborot texnologiyalari orqali kelib tushgan murojaatlar soni 125 foizga oshgan. Bu, bir tomondan, fuqarolar uchun elektron shaklda murojaat yuborish imkoniyatlarini kengaytib, ularga katta qulaylik yaratilganini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, Prezidentimizning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun'iy intellekt imkoniyatlarini davlat boshqaruviga keng joriy etish bo'yicha belgilab bergan vazifalarni naqadar dolzarb ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bugungi kunda fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlar tizimli o'rganilib, ular asosida tahliliy axborotlar parlament palatalariga kiritilmoqda. Bu esa xalqning ishonchli vakillari hisoblangan senator va deputatlarga har bir hududda qanday masalalar dolzarb ekanini, qanday masalalarga e'tibor qaratish lozimligini aniqlash, shu asosda keyingi maqsad va vazifalarni belgilashda muhim manba bo'lmoqda.

Eng muhimi, fuqarolar murojaatlari tahlili va Ombudsmaning mustaqil o'rganishlari natijasida 2025-yilda inson huquqlari va erkinliklarni ta'minlash yanada mustahkamlashga qaratilgan 3 ta qonunchilik taklifi ishlab chiqildi. Qonunchilik palatasiga kiritilgan bitta taklif deputatlar tomonidan ko'rib, qabul qilindi. Shuningdek, Ombudsman tavsiyasi asosida davlat organlari tomonidan 11 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, Ombudsman ta'sir choralarini natijasida inson huquqlarini buzgan 118 nafar mas'ul shaxs intizomiy, ma'muriy va jinoyi javobgarlikka tortilgan. Bu esa qonun buzilishiga yo'l qo'ygan mas'ullar harakatiga huquqiy baho berilayotganini ko'rsatadi.

Murojaatlar tahlilidan ayonki, ularning 32 foizi iqtisodiy huquqlar yo'nalishiga to'g'ri keladi. Xususan, bu toifadagi murojaatlarining aksariyati, bank-moliya, xususiy mulk kafolatlari hamda mehnat huquqlari bilan bog'liq masalalarga oid. Keyingi o'rinni ijtimoiy huquqlar (28 foiz) yo'nalishidagi murojaatlar egallaydi. Ularning asosiy qismi moddiy yordam, ijtimoiy ta'minot va munosib tarajoy bilan bog'liq masalalarga, shuningdek, ta'lim huquqiga taalluqli. Albatta, mamlakatimizda ijtimoiy sohalarga Davlat byudjetidan katta mablag'lar yo'naltirilayotgani, aholiga turli imtiyoz va imkoniyatlar yaratilayotgani ham bu borada murojaat o'rinishiga sabab bo'ladi. Fuqarolar shu imkoniyatlardan foydalanish uchun barcha tashkilotlarga murojaat qilayotgan holatlar ham bor. Shuning uchun fuqarolarning imkoniyat va kafolatlardan foydalanishi uchun aynan qaysi tashkilotlarga murojaat qilishi haqida ularning huquqiy xabardorligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biz bu borada "Ombudsman maktabi", "Ombudsman soati" hamda "Tenglik va hurmat" platformalaridan foydalanib kelmoqdamiz.

Qayd etish lozimki, davlat dasturida nogironligi bo'lgan shaxslarga teng imkoniyatlar yaratish, ular uchun qulay va to'siqsiz muhitni shakllantirish bo'yicha belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Ombudsman instituti 2026-yil uchun qator ustuvor yo'nalishlarni belgilab olgan. Shulardan biri - nogironligi bo'lgan shaxslarning murojaat qilish huquqini amalda to'liq ta'minlash masalasi. Zero, Ombudsmaning nogironligi bo'lgan shaxslar va ularning

qonuniy vakillari tomonidan yuborilgan murojaatlar tahlili huquqiy savodxonlik darajasi va axborotdan foydalanish imkoniyatlaridagi tafavutlar ularning murojaat etish huquqini to'liq amalga oshirishga to'siqlik qilayotganini ko'rsatmoqda. Shu bois fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda Ombudsman instituti faoliyatida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun xizmatlardan foydalanishdagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish, ularning murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan "Inklyuziv Ombudsman" loyihasini yo'lga qo'yish, shuningdek, mazkur yo'nalishda aniq "Yo'l xaritasi" va indikatorlarni ishlab chiqish belgilangan.

Aholi murojaatlari bilan ishlash bugun shunchaki ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish jarayoni emas, balki davlat organlari faoliyati samaradorligini baholovchi muhim mezonga aylandi. Inson huquqlarini ta'minlash borasida erishilgan natijalar, qonunchilikdagi yangiliklar, raqamlashtirish imkoniyatlarining kengayishi va murojaatlar asosida qabul qilinayotgan ta'sir choralar bu sohada tizimli ishlar olib borilayotganini ko'rsatmoqda. Ayni paytda murojaatlar tahlili hali yechimini kutayotgan masalalar - huquqiy xabardorlikni oshirish, quyi bo'g'inlarda mas'uliyat va natijadorlikni kuchaytirish, shuningdek, aholining barcha qatlamlari uchun murojaat etish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ham yaqqol namoyon qilmoqda.

Shu ma'noda, 2026-yilda davlat dasturida belgilangan vazifalar va Ombudsman instituti tomonidan ilgari surilayotgan ustuvor yo'nalishlar bir maqsadga - insonni ehsitish, ularni muammolariga yechim topish va adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Zero, har bir murojaat ortida bir insonning taqdiri, bir oilaning dardi, bir hududning yechimini kutayotgan masalasi bor.

**Feruza ESHMATOVA, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman).**

## Seminar

# Qizg'in bahslar, hayotiy takliflar

Oliy Majlis Senatida Toshkent shahar hokimligi huzuridagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kursini tinglovchilari uchun navbatdagi o'quv-seminar tashkil etildi.

Tinglovchilarga Senat faoliyati, uning tashkiliy tuzilmasi, shuningdek, qonun ijodkorligi jarayonidagi o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berildi. Bu orqali mahalla tizimi vakillarining davlat boshqaruvi institutlari faoliyati to'g'risidagi bilim hamda ko'nikmalarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

Shundan so'ng Senatning Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalar o'quv mitasi a'zosi Malika Qodirxonova ishtirokida ochiq muloqot bo'lib o'tdi. Unda mahalla institutlarini rivojlantirish, oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash, yoshlar, xotin-qizlar va keksalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari yuzasidan tinglovchilarning fikr-muholazalari hamda amaliy takliflari keng muhokama qilindi.

Eslatib o'tish joizki, Senat qo'mitalari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari tinglovchilari o'rtasida izchil sheriklik yo'lga qo'yilgan. Ushbu hamkorlik doirasida haftaning muayyan kunida senatorlar ishtirokida muntazam ravishda amaliy seminarlar tashkil etib kelinmoqda.

"Xalq so'zi".

## Senat qo'mitasida

## MARKAZIY BANK FAOLIYATI SARHISOBI



Oliy Majlis Senati Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasining navbatdagi majlisida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yildagi faoliyati yuzasidan hisoboti dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, Markaziy bankning 2025-yildagi faoliyatida asosiy e'tibor iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlash, inflyatsiya darajasini pasaytirish va uni o'rta muddatli 5 foizlik maqsadli ko'rsatkichga yaqinlashtirish, pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish, shuningdek, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratildi.

Hisobot davrida mamlakat iqtisodiyoti barqaror o'sishni namoyon etib, yalpi ichki mahsulot 7,7 foizga oshgan. Umumiy inflyatsiya pasayib, yil yakunida 7,3 foizni tashkil etdi va 2024-yildagiga nisbatan 2,5 foizga kamaygan. Bazaviy inflyatsiya ham 5,7 foizgacha sekinlashgan.

2025-yilda Markaziy bankning asosiy stavkasi 14 foiz darajasida belgilandi, yil davomida ushbu darajada saqlab qolindi. Pul bozorida operatsiyalar hajmi 783 trln. so'mni tashkil qildi.

Moliyaviy sektorda ijobiy natijalar qayd etildi. Jumladan, banklar aktivlari 925 trln.

so'mni, iqtisodiyotga kredit qo'yimlari 653 trln. so'mni tashkil qildi, ajratilgan kreditlar hajmi 390 trln. so'mga yetdi. Mikro, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash uchun 131 trln. so'm kredit ajratilib, 3,46 mln. kishining bandligi ta'minlangan.

Bank tizimi barqarorligi ko'rsatkichlari yaxshilanib, kapital monandligi 18,3 foizni tashkil etdi va belgilangan minimal talablardan yuqori darajada saqlandi. Muammoli kreditlar ulushi 4 foizdan 3 foizgacha pasaydi.

Valyuta bozorida ijobiy dinamik kuzatilib, milliy valyuta AQSH dollariga nisbatan 6,9 foizga mustahkamlandi. Xalqaro zaxiralari hajmi 66,3 mlrd. dollarga yetib, 61 foizga oshdi.

To'lov tizimlari va raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish borasida ham sezilarli o'sish qayd etildi. Xususan, mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 646 trln. so'mni tashkil qilib, 1,6 barobar ko'paygan.

Majlisda mazkur hisobot senatorlar tomonidan atroflicha muhokama qilinib, inflyatsiya darajasini yanada pasaytirish, pul-kredit siyosati vositalarini takomillashtirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, to'lov tizimlari xavfsizligini ta'minlash hamda kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish yuzasidan qator taklif va tavsiyalar bildirildi.

Muhokama yakunida qo'mita tomonidan tegishli qaror qabul qilindi.

## MUHOKAMA MARKAZIDA – IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA OBYEKTлари HOLATI

27-28-aprel kunlari Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari Sayyora Abdikarimova boshchiligidagi ishchi guruh Qoraqalpog'iston Respublikasining qator tumanlarida irrigatsiya va melioratsiya obyektlari holatini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni o'rgandi.

Mazkur jarayonda Nukus shahridagi "Tele oray" MFYda aholi tomorqalarining suv ta'minotini yaxshilashga qaratilgan ishlar ko'zdan kechirildi, mahalla faollari bilan muloqot o'tkazildi. Shuningdek, Taxiotosh tumanidagi "Eski Keneges" kanalida olib borilayotgan rekonstruksiya holati o'rganildi. Kanalni betonlashtirish orqali suv resurslaridan samarali foydalanish, suv hamda elektr energiyasi tejashga erishish maqsad qilingani e'tirof etildi.

Bundan tashqari, Xo'jayli tumanidagi 680 gektar maydonga xizmat ko'rsatuvchi "Oybek" nasos stansiyasi faoliyati bilan tanishildi. Hozirda obyektida nasos agregatlarini energotejamkor turlarga almashtirish orqali elektr energiyasi tejashiga erishish mumkinligi qayd etildi.

O'rganish yakunida hududlardagi melioratsiya obyektlari, jumladan, fermer xo'jaliklari yerlaridagi kollektor-drenaj tarmoqlari holati tahlil qilinib, mavjud muammolarni bartaraf etish, kollektorlarni tozalash va ta'mirlash, suv chiqarish tizimlari samaradorligini oshirish bo'yicha tegishli tavsiya va takliflar berildi.

29-aprel kuni esa Senatning Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi majlisi o'tkazilib, unda Qoraqalpog'iston Respublikasida irrigatsiya va melioratsiya obyektlari holatini o'rganish natijalari muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, joriy yilning o'tgan davrida irrigatsiya va melioratsiya obyektlarida qurilish, rekonstruksiya hamda ta'mirlash ishlari uchun Davlat byudjetidan 200,1 mlrd. so'm mablag' ajratilgan. Uning hisobidan 66 km. kanal va 40 km. kollektor-drenaj tarmoqlari qurilgan hamda rekonstruksiya qilingan, shuningdek, 687 km. tarmoqlarda ta'mirlash ishlari bajarilgan.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida 11,8 mln. kub metr suv yo'qotilishining oldi olingan, 18,5 ming gektar yerning suv ta'minoti hamda 7,2 ming gektar yer maydonlarining meliorativ holati yaxshilangan.

Hududda 260,7 ming gektar sug'oriladigan maydonlarda suv tejoychi texnologiyalarga o'tilgan bo'lib, ular jami maydonning 51 foizini tashkil etadi. Yil yakuniga qadar ushbu ko'rsatkichni 58 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Suv xo'jaligi sohasini raqamlashtirish va boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish doirasida 995 ta "Aqliq suv" va 1,3 mingta "Dayver" qurilmasi o'rnatilgan, shuningdek, 7 ta yirik suv xo'jaligi obyektida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi joriy etilgani aytiladi.

Majlisda senatorlar va qo'mita ekspertlari tomonidan sohadagi muammolarga ham e'tibor qaratildi. Jumladan, suv hisobini yuritishni raqamlashtirish hamda oldingi yillarda yer maydonlarida joriy etilgan suv tejoychi texnologiyalar holatini xatlovdan o'tkazish ishlari yakunlanmagan, shuningdek, sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish bo'yicha belgilangan vazifalar jiroi to'laqonli ta'minlanmagan tanqid ostiga olindi.

Senatorlar suv, asosan, tuproq o'zani kanallarda yo'qotilayotgani sababi ushbu tarmoqlarni betonlashtirish orqali yo'qotishlarning oldini olish, suv xo'jaligi inshootlarini jalb qilish zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda suv tejoychi texnologiyalarni qo'llash va foydalanish bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash, sohadagi mutaxassislar uquvini tizimli oshirib borish choralarini ko'rish muhim ekanini aytib o'tildi.

Muhokama yakunida qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

## "TASHABBUSLI BYUDJET" LOYIHALARINING IJROSI QONIQLARIMI?

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi tomonidan Toshkent viloyatida 2024-2025-yillarda o'tkazilgan "Tashabbusli byudjet" jarayonlari doirasida g'olib deb topilgan loyihalarning ijrosi o'rganildi.

## O'rganish

Xususan, viloyat bo'yicha 2024-yilda 513 ta, 2025-yilda esa 470 ta loyiha g'olib deb topilgan. O'tgan yili g'olib loyihalarning 71 foizida ishlar yakunlangan bo'lsa, 136 ta loyiha bo'yicha ishlar hali davom etmoqda.

Tahsilarga ko'ra, 2024-yilda viloyatda 4 410 ta loyiha taklif etilib, shundan 3 410 tasi ovoz berish bosqichiga o'tkazilgan. Jami 790 mingga yaqin ovoz berilgan, qiymati 574 mlrd. so'mlik 513 ta loyiha g'olib bo'lgan. O'tgan yilda esa 4 518 ta loyiha ilgari surilib, 3 295 tasi ovoz berish bosqichiga o'tkazilgan hamda qiymati

594 mlrd. so'mlik 470 ta loyiha g'olib deb topilgan.

O'rganishlar davomida ishchi guruh Olmaliq va Angren shaharlari hamda Ohangoran tumanida bo'lib, qator ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlar holatini ko'zdan kechirdi.

Tahsililar jarayonida ayrim loyihalarni amalga oshirishda kamchiliklar mavjudligi, jumladan, asfaltlash sifati talab darajasida emasligi hamda ishlar belgilangan muddatlarda yakunlanmayotgani aniqlandi.

Xususan, "Tashabbusli byudjet" doirasida Olmaliq shahridagi "Namuna" MFYning jami 3 120 metr ichki ko'chalari,

jumladan, Guliston ko'chasining 230 metr qismini ta'mirlash rejalashtirilib, 2024-yilning kuzida asfaltlanishi lozim edi.

Shuningdek, ushbu ko'chada oqova suv tizimini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari ham reja qaratilgan. Mazkur loyiha yuzasidan aholi murojaatlari joyiga chiqib o'rganilganida, Guliston ko'chasining 230 metr qismida yo'l ta'mirlash vaqtincha to'xtatilgani, ishlar mahallaning boshqa ichki ko'chalarda davom ettirilib, to'liq ta'mirdan chiqarilgani aniqlandi.

Ayni paytda Guliston ko'chasida oqova suv tizimi bilan bog'liq qurilish ishlari yakunlanmagan, shu sababli pudratchi tashkilot tomonidan ushbu hududda asfalt qoplamasini yotqizish amalga oshirilmagan. Qurilish va ta'mirlash to'liq yakunlanganidan so'ng

belgilangan tartibda ushbu ko'cha qismiga asfalt qoplamasi yotqizish bo'yicha tuman mas'ullariga tegishli topshiriqlar berildi.

Bundan tashqari, hududda olib borilayotgan o'rganishlar davomida mahalladan o'tuvchi ariqdan oqova suv oqishi va u hududga baddo'by taratib, aholiga noqulaylik tug'dirayotgani ma'lum bo'ldi. Oqova suv tarmog'idagi nosozlikni bartaraf etish yuzasidan tuman mutasaddirlariga tegishli ko'rsatma berildi. Mazkur muammoni hal qilish bo'yicha amaliy ishlar boshlab yuborildi.

O'rganishlar yakuni bo'yicha loyihalar ijrosini jadallashtirish, ishlar sifatini oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish yuzasidan tegishli taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqildi, mas'ul idoralarga aniq vazifalar belgilab berildi.

"Xalq so'zi".

## Gender tenglikni ta'minlashga zamonaviy yondashuvlar

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Osiyo taraqqiyot banki (OTB) bilan hamkorlikda tijorat banklarining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashlari uchun seminar tashkil etildi. Unda Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orziqul Qozixonova va qo'mita a'zosi Malika Qodixonova qatnashdi.

## Tadbir

Markaziy bank, tijorat banklari, maslahat kengashlari, tegishli vazirlik va idoralar, xalqaro hamda rivojlanish bo'yicha hamkor tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Seminar davomida bank-moliya tizimida gender tenglikni ta'minlashning zamonaviy yondashuvlari, maslahat kengashlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy va uslubiy asoslarini takomillashtirish, ularning institutsional boshqaruvdagi rolini kuchaytirish, shuningdek, gender siyosatini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini kengaytirish masalalari muhokama markazida bo'ldi.

Xususan, ish joylarida teng



imkoniyatlarni ta'minlash, xotin-qizlarning kasbiy va rahbarlik salohiyatini rivojlantirish, mehnat muhitini yanada takomillashtirish, institutsional hisobdorlikni kuchaytirish, gender ko'rsatkichlarini monitoring qilish va hisobot yuritishning zamonaviy yondashuvlarini joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

"Xalq so'zi".

## IQTISODIY TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHI

"Karkidon" suv ombori hududidagi yangi turizm majmuasi hamda Marg'ilon shahridagi "Burhoniddin Marg'inoniy" ilmiy-ma'riy va turizm majmuasining ochilishi Farg'onaning turizm hamda madaniy meros salohiyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu loyihalar nafaqat sayyohlar oqimini oshirish, balki xizmatlar eksporti, yangi ish o'rinlari va hududiy brendni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tarixiy merosni zamonaviy turizm infratuzilmasi bilan uyg'unlashtirish mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlaydi.

Quva tumanidagi 1-sonli texnikum va Farg'ona shahridagi "IT Park Uzbekistan" majmuasiga tashrif inson kapitaliga sarmoya eng muhim strategik ustuvorlik ekanini ko'rsatdi. Yoshlarni zamonaviy



kasblar, xorijiy tillar, IT, sun'iy intellekt va startup muhitiga jalb etish kelgusida yuqori daromadli iqtisodiyot uchun mustahkam kadrlar bazasini yaratadi. Bu esa "resurslarga emas, bilimga tayangan iqtisodiyot" modeliga o'tishning amaliy ifodasidir.

Farg'ona shahridagi investorlarga xizmat ko'rsatish markazi va "Yagona milliy loyiha boshqaruvi axborot tizimi" esa investitsiya muhitini ochiq, tekzor va shaffoflashtirishga xizmat qilmoqda. "Yagona darcha" tamoyili asosida investorlar uchun qulay raqamli muhit yaratilishi, yirik xalqaro loyihalarning shakllanishi va hududning global iqtisodiy aloqalarga faol integratsiyalashuvi Yangi O'zbekiston iqtisodiy siyosatining muhim belgisidir.

Shu ma'noda, viloyatda ro'yobga chiqarilayotgan mazkur loyihalar mamlakatimizda hududlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha shakllangan yangi yondashuvning amaldagi ifodasi, desak, ayni haqiqat. Har bir obyekt – sanoat korxonasi, agromajmu'a, turizm markazi, texnikum yoki IT-park bo'lishidan qat'i nazar, avvalo, inson manfaatini, yangi ish o'rinlari, barqaror daromad va zamonaviy hayot sifatini ta'minlashga qaratilgan.

Albatta, tashrif davomida davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib, biz, deputatlar ham joylardagi mavjud imkoniyatlarni chuqur tahlil qilish, istiqbolli loyihalarni tezlashtirish va aholi farovonligiga bevosita ta'sir etuvchi qonunlarni ishlab chiqishda faol bo'lamiz.

Mavluda IBRAGIMOVA,

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

## ISLOHOTLAR NATIJADORLIGI – FAROVONLIK KAFOLATI

Mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aholi farovonligini oshirish va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan islohotlar izchil davom etmoqda. Prezidentimiz raisligida joriy yilning birinchi choragi yakunlari hamda yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirishga oid zarur chora-tadbirlar belgilab berildi.

## Aks sado

Yig'ilishda mamlakatimiz iqtisodiyotida ijobiy o'sish sur'atlari saqlanib qolayotgani qayd etildi. Ayniqsa, byudjet daromadlarining sezilarli o'sishi va mahalliy byudjetlarda qo'shimcha mablag'lar shakllangan hududlarning moliyaviy mustaqilligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa joylarda aholi muammolarini hal qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Shu bilan birga, erishilgan natijalarga mahliyo bo'lib qolmasdan, mavjud



kamchilik va muammolarni tanqidiy baholashga alohida e'tibor qaratildi. Ayrim hududlarda kichik biznesni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish borasida samaradorlik pastligi, kredit resurslaridan to'liq va maqsadli foydalanilmayotgani tanqid qilindi. Bu holatlar har bir rahbardan ish uslubini o'zgartirish, tashabbuskorlik va mas'uliyatni

kuchaytirishni talab etadi.

Shu o'rinda aytish joizki, bugungi kunda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Ayni nuqtayi nazardan, kredit ajratish jarayonlariga zamonaviy yondashuvlarni, jumladan, sun'iy intellekt imkoniyatlarini joriy etish orqali mablag'larning samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat yangi ish o'rinlari yaratishga, balki tadbirkorlik muhiti yanada shaffof va adolatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Yig'ilishda inflyatsiyani jilovlash masalasi ham alohida urg'u berildi. Darhaqiqat, iqtisodiy o'sish aholi hayotida sezilarli natija berishi uchun narx-navo barqarorligi ta'minlanishi shart. Bugungi global vaziyatda neft narxining oshishi, logistika zanjirlaridagi uzilishlar ichki bozorga bosim o'tkazayotgan bir paytda mahalliy ishlab

chiqarishni kengaytirish eng to'g'ri yechimdir.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish kabi masalalar ham dolzarbligicha qolmoqda. Bu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar aholini sifati va arzon mahsulotlar bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, sanoatni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va investitsiyalarni samarali o'zlashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Ayrim hududlarda sanoat ko'rsatkichlarining bajarilmayotgani, eksport hajmining pasayishi mutasaddirlar oldiga jiddiy talablar qo'yadi. Bu borada har bir loyihaning sifati, uning iqtisodiyotga qo'shadigan qiymati ustuvor mezon bo'lishi zarur.

O'z navbatida, Qonunchilik palatasi amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslarini takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratib, o'tgan davrda qator muhim qonunlarni qabul qildi. Ularda tadbirkorlar manfaatlarini himoyasi, biznes vakillariga yanada qulaylik yaratish, fuqarolarning farovon hayot kechirishini ta'minlash, sihat-salomatlilgini mustahkamlash masalalari ustuvorlik kasb etayotgani e'tiborga molik.

Albatta, bu boradagi ishlar kelgusida yanada faollashadi. Deputatlar joylardagi muammolarni o'rganish, qonunchilikni takomillashtirish va aholi manfaatlarini himoya qilish yo'lida bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etadi.

Risqul SIDDIQOV,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Muqaddasxon AHMEDOVA,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

# SHO'X O'YNAGAN YARASHADI XORAZMNING LAZGISIGA!



## Festival

Qadimiy va navqiron Xivada o'tkazilgan "Lazgi" III xalqaro raqs festivali nihoyasiga yetdi. Prezidentimizning 2020-yil 28-sentabrdagi "Lazgi" xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash, vohaga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlar orasida boy madaniy merosimizni keng targ'ib qilish va shu orqali "Art" turizmni rivojlantirish, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va madaniy aloqalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan mazkur san'at bayramida dunyoning 30 dan ortiq davlatlaridan 300 dan ziyod raqs san'ati ustalari, taniqli xoreograflar, olimlar va madaniyat sohasi vakillari ishtirok etdi. Anjuman tadbirlarini xorijiy va mahalliy ommaviy axborot vositalari keng yoritib bordi.

Festival sahnasida Xorazm lazgisining turli millat vakillari tomonidan zo'r mahorat bilan ijro etilishi jahon san'atining bu noyob durdonasi tarjima va izohga muhtoj emasligini, u ularni ellarga, dillarni dillarga bog'lovchi mustahkam vosita ekanini yana bir bor isbotladi.

Umuman, bu zamin nafaqat betakror raqs san'ati, balki tarixiy obidalari va shirin-shakar mevalari, ajoyib milliy urf-odat hamda an'analari bilan ham meni maftun qildi. Festival doirasida uyushtirilgan qator ko'rgazmalar va unda aks ettirilgan o'zbek hunarmandlarining, tasviriy san'at ustalarning asarlari barchamizda katta taassurot qoldirdi.

### Tatang SUKARI, indoneziyalik san'atshunos:

– "Lazgi" xalqaro raqs festivali – bu mahorat, iste'dod, go'zallik bayrami. Afsonaviy shaharning betakror jozibasi festival shukhi va tarovatini yanada oshirdi. Milliy liboslardagi yigit va qizlarning raqslarni yuksak mahorat bilan ijro etayotganini ko'rib qo'yl qolmasdan iloj yo'q. Jo'shqin kuy va qo'shiqlardan to'liqlanib, men bilan kelgan hamyurtlarim hamda boshqa chet ellik sayyohlar qadimiy bosh kiyim – cho'girmani kiyib, raqqos va raqqosalarga qo'shilib o'yinga tushdiki.

E'tiborli jihati, festivalda ijro etilgan raqslarning har birida o'sha xalqning milliy tarixi, qadriyatlari o'z aksini topgan. Biz ham milliy raqs san'atimiz namunalarini ijro qildik.

### Ayrat KAMETOV, Tatariston davlat qo'shiq va raqs ansambli badiiy rahbari (Rossiya):

– Festival doirasida O'zbekiston raqs san'ati fotok'rgazmasi, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari yarmarkasi, teatrlashtirilgan sahnalar, milliy taomlar ko'rgazmasi, liboslar namoyishi, raqs san'ati ustalari bilan ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari bo'lib o'tdi. Qisqacha aytganda, mazkur festival turli xalqlarning asrlar osha sayqal topib kelgan milliy raqs san'atini yanada keng targ'ib etish, asrab-avaylash va rivojlantirishga xizmat qildi, desak, mubolag'a emas.

## So'z – festival qatnashchilariga

### Gavhar MATYOQUBOVA, O'zbekiston xalq artisti, professor:

– Xorazm san'atining o'ziga xos "tashrif qog'ozi" bo'lgan "Lazgi" raqs uch ming yillik tarixga ega. U YUNESKONing Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan ham uning betakror san'at durdonasi ekanidan dalolat. Zero, Prezidentimizning festival ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida ta'kidlaganidek, "Xorazm lazgisi – nafaqat milliy raqs, balki xalqimizning ko'p asrlik tarixi, yuksak madaniyati va noyob san'atining yorqin ifodasidir". Festivaldagi har bir ijro, har bir sahna ko'rinishida "Lazgi"ning ana shu ulug'vorligi, teran mazmun-mohiyati o'z ifodasini topdi. Ayniqsa, tarixda madaniyat va san'at, adabiyot homiysi sifatida nom qoldirgan Muhammad Rahimxon Feruz siymosi gavdalanirilgan sahna ko'rinishida ijro etilgan sunay lazgisi ohangiga barcha raqsga tushdi.



va raqs san'atiga e'tibori alohida tahsinga loyiq.

Yanada e'tiborlisi, Prezidentimiz taklifi bilan Urganch shahrida "Lazgi" muzeyi barpo qilindi. "Lazgi" raqsining tarixi va falsafasi to'la ochib beriladigan ushbu muzey endilikda mahalliy va chet ellik sayyohlarning sevimli maskaniga aylanishiga shubha yo'q.

### Hamid MAHMUD, pokistonlik san'atshunos:

– Avvalo, ushbu go'zallik va nafosat, qadriyatlar va do'stlik bayramiga taklif etilgan uchun festival tashkilotchilariga samimiy minnatdorlik bildiraman. O'zbekiston Prezidentining festival ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi bizga juda katta rag'bat berdi, bayramona kayfiyat bag'ishladi. Davlat rahbarining milliy musiqa

olita davlatda nashr etiladi. Maqsad – turkiy dunyo raqslarini bir tizimga keltirish va kelajak avlodga yetkazish. Bu loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirishda mana shunday xalqaro raqs festivallari muhim ahamiyatga ega.

### Tarona MURODOVA, Ozarbayjon xalq artisti:

– Ushbu an'anaviy raqs festivalini 2022-yildan buyon kuzatib kelsam-da, bu yil bevosita qatnashish nasib qildi. Aytish joizki, Xorazm va ozarbayjon raqslari hamda musiqalari sho'x, o'ynoqligi bilan bir-biriga juda o'xshash. Festivalda "Lazgi" raqs va milliy raqslarimizni ham mahorat bilan ijro etdik.

"Lazgi" III xalqaro raqs festivalida sahnaga har bir chiqish hakamlar hay'ati tomonidan baholanib borildi. Tanlovning so'nggi kunida ishtirokchilar o'z yo'nalishlari bo'yicha e'tirof etilib, eng saralar taqdirlandi. "Gran-pri" sohibi bo'lishga Mohira Jovliyeva (O'zbekiston) munosib ko'ridi. Tanlovning barcha nominatsiyalari bo'yicha g'oliblar munosib taqdirlandi.

### Odilbek ODAMBOYEV ("Xalq so'zi").

## Anjuman

# Insonparvarlik – mahalla tizimi uchun muhim mezon

Buyuk Britaniyaning Oksford shahrida "Bo'linish davrida insonparvarlik" mavzuida sessiya o'tkazildi. Filantropiya va ijtimoiy ta'sir sohasida faoliyat yurituvchi xalqaro ekspertlar ishtirokida bo'lib o'tgan ushbu tabirda O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondi vakillari ham qatnashdi.

Sessiyada bugungi dunyo qanday murakkab bosqichda turgani hamda filantropiyaning roli qanday bo'lishi kerakligi ochib berildi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda dunyo ijtimoiy tengsizlik va turli bo'linishlar davrini boshdan kechirmoqda. Shu nuqtada asosiy savol qo'yildi: filantropiya mavjud tizimni qo'llab-quvvatlash bilan cheklanadimi yoki uni o'zgartirishga qodirmi?

Ekspertlar xulosasiga ko'ra, zamonaviy filantropiya, bu shunchaki yordam emas, balki tizimli o'zgarish yaratadigan kuch. Muhokama davomida bir nechta muhim yo'nalishlar ajratib berildi. Xususan, filantropiya yangi g'oyalarni sinab ko'rish va tavakkal qilish imkoniyatiga ega. Bu uning eng katta afzalliklaridan biri

hisoblanadi. Shuningdek, samarali yechimlar mahalliy darajada, ya'ni odamlar bilan birgalikda ishlash orqali yuzaga keladi. Bu esa O'zbekistondagi mahalla tizimining ahamiyatini yanada oshiradi. Ko'p pul yoki resurs bo'lishi shart emas, eng muhimi – o'sha resursni to'g'ri joyga, haqiqiy ehtiyoj bor yerga sarflash, xatolarni tan olish hamda ulardan xulosa chiqarish zamonaviy filantropiyaning muhim tamoyiliga aylanmoqda.

Sessiyada ko'tarilgan masalalar, takliflar sohani chuqur anglash va ularni amaliy yo'nalishga o'tkazish imkonini beradi. Bu tajriba "Mahalla" fondi uchun global tendensiyalarni oldindan his qilish va faoliyatni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

"Xalq so'zi".

# Suv ustida sholi yetishtirish – samarali loyiha


Quyil Chirchiq tumanidagi "TCT Fish Cluster" mas'uliyati cheklangan jamiyati ekinzorida suv ustida sholi yetishtirish loyihasi sinovdan o'tkazilyapti. Bir gektar suv havzasida Filippin, Tailand, Xitoy va Vyetnam tajribasi asosida suzuvchi sholi ekilib, innovatsion agrotexnologiyaning amaliy natijalari o'rganilmoqda.

## Omilkorlik

– Ushbu usulning eng muhim jihati mahsulotning to'liq organik holda yetishtirilishi hisoblanadi, – deydi Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti xodimi Muhammadali Xoldarov. – Sababi hovuzlarga baliq uchun solinadigan ozuqa moddalari, xususan, ammonos suv muhitida tabiiy o'g'it vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, baliqlarning sholi ildiz tizimi bilan o'zaro ta'siri o'simlikning o'suvchanligi va hosildorligini oshiradi. Natijada ekologik toza mahsulot olinadi.

Shu texnologiya asosida yetishtirilgan guruch an'anaviy usuldagi mahsulotga nisbatan sifati yuqoriligi va narxi hamyonbolig'i jihatdan ustunlikka ega. Bu esa ichki bozorda raqobatbardoshlikni oshirish bilan birga, eksport salohiyatini ham kengaytirishga xizmat qiladi.

E'tiborlisi, mazkur tajriba nafaqat Quyil Chirchiqda, balki Farg'ona viloyatining Zo'yovon, Namangan viloyatining Mingbulok



hamda Toshkent viloyatining Bekobod tumanlarida ham joriy etilayotgani ushbu yo'nalishning istiqbolli ekanidan dalolat beradi.

Otabek ISROILOV ("Xalq so'zi").

## Taassuf

# Qimmatga tushayotgan sukut

Agar ommaviy axborot vositasida jamiyatdagi jiddiy muammo ko'tarilsay tahrirat unga munosabat bildirishni so'rab davlat organiga yozma murojaat qilsa, biroq mas'ul shaxslar masalani belgilangan muddatda o'rganib chiqib, o'z fikrini aytish o'miga olti oylab sukut saqlasa – buni qanday tushunish mumkin? Ayniqsa, davlatimiz rahbari birorta murojaat e'tiborsiz qolmasligini talab qilayotgan, qonunlarimizda ham bunday loqaydlik uchun javobgarlik belgilab qo'yilgan bo'lsa...

"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunning 7 va 28-moddalari mazmunidan kelib chiqsak, ommaviy axborot vositalarining murojaatlari "masalani mazmunan hal etishi shart bo'lgan davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi".

Afsuski, ba'zi amaldorlar bu qonun talabini mensimaydi, nazarimizda. Gazetamizning o'tgan yil 17-oktabrdagi 214-sonida "Shahar chiroyiga dog' tushmasin" sarlavhali maqola e'lon qilingan haqida so'z boradi. Birgina "Salar" korxonasi o'zida har kuni ana shunday suvda erimaydigan kattayu kichik chiqindilarning 4 tonnasi "g'alvir"ga tushayotir. Afsuski, ko'pchilik korxonalarida birlamchi tozalash tizimining o'zi yo'q, borlari ham ortiqcha xarajatdan qochib, ishlatilmaydi. Shu bois O'zgarish, Qumariq singari o'nlab mahallalarda baddo'ylik yoz keldi deguncha, yanada kuchayadi. Respublika Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi bosh mutaxassisi Ilhom Dadaxo'jayevning fikricha, bunga qonuniy yo'l bilan butkul barham berilmasa, oqibati yanada ayanchli bo'lishi mumkin.

Mutasaddilar bu gal masalaga jiddiy yondashib, amaliy qadamlar tashlaydi va natijasi bo'yicha matbuotga javob yo'llaydi, degan umiddamiz. Chunki odamlarni qinayotgan muammo qanchalik tez va oqilona yechim topsa, yetkazilayotgan zarar ham shuncha kam bo'ladi.



## Tahrirat pochtasidan

# Ish prokuraturaga oshirildi

Gazetamizning shu yil 25-mart sonida "So'zbo'yamachilik yoxud ba'zi tashkilotlarning xalq murojaatlariga panja orasidan qarayotgani xususida" sarlavhali maqola e'lon qilingan va unda Nurota tumani "Yangi hayot" MFYda yashovchi fuqaro X. Ro'ziboyevning suyultirilgan gaz ta'minoti bilan bog'liq murojaati o'rganilib, muammo bartaraf etilishi o'miga ko'zbo'yamachilik yo'li bilan "yopib" yuborilgani haqida yozgan edik. Tahriratga mazkur ish yuzasidan "Hududgaz-ta'minot" aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi o'rinbosari Tohir Turdiyev imzosi bilan xat kelib tushdi.

Unda ma'lum qilinishicha, tuman gaz ta'minoti bo'limi xodimlarining xatti-harakatlari atroflicha o'rganib chiqilgan. O'rganish davomida "Hududgaz Navoiy" filiali "Nurotatumangaz" bo'limining suyultirilgan gaz ta'minoti xizmatida 2025-yil sentabr oyigacha ishlab kelgan uch nafar sobiq xodim iste'molchilar foydalanishida bo'lgan maishiy gaz ballonlarini aldov yo'li bilan yig'ib olib, noma'lum shaxslarga sotib yuborgani aniqlangan. Gaz ta'minoti filiali balansidagi mol-mulkning talon-toraj qilinishi natijasida tumanidagi iste'molchilarga suyultirilgan gaz muddatida yetkazib berilmagan va bu aholining haqli e'tirozini keltirib chiqarib, murojaatlar sonining keskin ortishiga olib kelgan.



Hozirgi kunda mazkur holatga huquqiy baho berish hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida tegishli hujjatlar Nurota tumani prokuraturasiga taqdim etilgan. Huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan tergov-surishtiruv ishlari olib borilmoqda.

Shuningdek, murojaatchi X. Ro'ziboyev xonadoni o'rnatilgan tartibda bir dona maishiy gaz ballonida suyultirilgan gaz bilan ta'minlanib, o'rganish natijalari to'g'risida unga javob xati yuborilgan.

"Xalq so'zi".

## 7 – 9-may kunlari poytaxtimizdagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi maydonida "Tashkent Flowers Fest – 2026" gullar festivali bo'lib o'tadi.

## Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

### Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 25 499 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:  
Devonxon 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriratga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va mullig'ga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir N. Ostonov.  
Musahhiih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.30 Topshirildi – 23.40 1 2 3 4 5 6